

**GAROVGA QO'YILAYOTGAN USKUNANI SUG'URTALASH TO'G'RISIDA
BOSH SHARTNOMA**

“01” “NOYABR” 2024 YIL 01/77UHB/054-SONLI

Toshkent sh.

“01” Noyabr 2024-y.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligining 2022 yil 25-iyuldagi 00037-sonli Sug'urta faoliyatini amalga oshirish huquqini beruvchi Litsenziyasi asosida o'z faoliyatini amalga oshiradigan, keyingi o'rinlarda **“SUG'URTALOVCHI”** deb nomlanuvchi **“MY INSURANCE”** AJ ST nomidan Ustav asosida ish yurituvchi Bosh direktor M.B Kucharov bir tomondan, keyingi o'rinlarda **“NAF OLUVCHI”** deb nomlanuvchi, **“Hamkorbank” ATB** nomidan Ustav asosida ish yurituvchi Boshqaruv raisi B.T. Jo'rayev ikkinchi tomondan birgalikda **“Tomonlar”**, alohida hollarda **“Tomon”** deb atalib, Garovga qo'yilayotgan uskunani sug'urtalash to'g'risidagi Bosh shartnomani (bundan buyon matnda - Bosh shartnoma deb yuritiladi) tuzdilar:

1. Mazkur Bosh shartnomaning predmeti O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 354 (Shartnoma tuzish erkinligi) va 360 (Qo'shilish shartnomasi) moddalariga asosan Qarz oluvchining (Sug'urta qildiruvchining) mazkur Bosh shartnoma shartlariga qo'shilishi hisoblanadi.
2. Naf oluvchi va/yoki Qarz oluvchining topshirig'iga ko'ra, Sug'urtalovchi o'z zimmasiga, mazkur Bosh shartnomanning ajralmas qismi hisoblanadigan 2024 yil “01” noyabrdagi **“Garovga qo'yilayotgan uskunani”** sug'urtalash qoidalari (bundan buyon matnda – **“Sug'urta qoidalari”** deb yuritiladi) shartlariga muvofiq, sug'urta hodisasi sodir bo'lishi oqibatida Sug'urta qildiruvchiga/Naf oluvchiga yetkazilgan zararni qoplash majburiyatini oladi. Sug'urta qoidalari doirasida rasmiylashtirilgan sug'urta polisiga muvofiq Sug'urta qildiruvchi Qarz oluvchi hisoblanadi.
3. Sug'urta mukofotini to'lanishi, Qarz oluvchining Sug'urta qoidalari va elektron sug'urta polisida belgilangan shartlarda, tartibda va hajmda, Sug'urta qoidalariga qo'shilishiga so'zsiz va to'liq roziligini (akseptlaganini) bildiradi.
4. Har bir Qarz oluvchining mazkur Bosh shartnomaga va Sug'urta qoidalariga qo'shilishi Sug'urtalovchi tomonidan har bir sug'urta shartnomasi doirasida berilgan elektron sug'urta polisi bilan tasdiqlanadi.
5. Tomonlar Sug'urtalovchining Internet jahon axborot tarmog'idagi rasmiy veb-saytidan, shuningdek mobil ilovalardan, elektron pochtdan va axborot almashishning boshqa usullaridan foydalanilgan holda elektron sug'urta polislarini rasmiylashtirishga haqli.
6. Tomonlar, Sug'urta qoidalariga muvofiq elektron sug'urta polisi yuzasidan olingan majburiyatlarni bajarilishi bilan bog'liq bo'lgan huquq va majburiyatlarga ega. Sug'urta qoidalarida belgilangan shartlar, shu jumladan sug'urta polisi matniga kiritilmagan shartlar, Sug'urtalovchi, Sug'urta qildiruvchi / Qarz oluvchi va Naf oluvchi uchun majburiydir.
7. Mazkur Bosh shartnomaga ilova qilingan Sug'urta qoidalari sug'urta qildiruvchiga topshirilganligini Sug'urtalovchi tasdiqlaydi..
8. Mazkur Bosh shartnomada nazarda tutilmagan boshqa shartlar, Bosh shartnomaning ajralmas qismi bo'lgan Sug'urta qoidalari va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik asosida tartibga solinadi.
9. Mazkur Bosh shartnoma taraflar tomonidan imzolanganidan so'ng kuchga kiradi va taraflarning birini tashabbusi bilan ikkinchi tarafni 30 kun oldin ogohlantirgan holda bekor qilinishi mumkin, biroq mazkur Bosh shartnoma bekor qilinishi uning amal qilgan davrida berilgan sug'urta polislar muddati tugaguniga qadar amalda bo'ladi.

1. TOMONLAR MANZILI VA REKVIZITLARI

SUG'URTALOVCHI

"MY INSURANCE" AJ ST

Manzili: Toshkent shaxar,
Mirobod tumani, Kichik Mirobod-95

BANK: Toshkent sh. TIF "MILLIY
BANKI" AJ

MFO: 00450, **OKED:** 65120

Inn: 207002342

x.R.: 2020 8000 4047 8606 6111

Elektron pochta: info@myinsurance.uz

Tel.: +998712051919

Bosh direktor: M.B Kucharov

m.o'.

imzo



Naf OLUVCHI

"Hamkorbank" ATB

Manzili: Andijon sh., Bobur shoh ko'chasi, 85
uy

BANK: "Hamkorbank" ATB Bosh ofisi

MFO: 00083, **OKED:** 96120

inn: 200 242 936

x.R.:

Elektron pochta: muloqot@hamkorbank.uz

Tel.: 0 800 1 200 200

Boshqaruvi raisi: B.T. Jo'rayev

m.o'.

imzo



“KELISHILGAN”
“Hamkorbank” ATB
Boshqaruvi

B.T. To'rayev
(imzo va muhr o'rnini)
“01” Novabr 2024-yil

“TASDIQLAYMAN”
“MY INSURANCE” AJ ST
Bosh direktori

M.B. Kuchkarov
(imzo va muhr o'rnini)
“01” Novabr 2024-yil

Garovga qo'yilayotgan uskunani sug'urtalash qoidalarini

1-BO'LIM. UMUMIY SHARTLAR

1.1. Ushbu Garovga qo'yilayotgan uskunani sug'urtalash qoidalarini (bundan keyingi matnlarda – “Sugurta qoidalarini” deb nomlanadi) “MY INSURANCE” AJ ST AJ (keyinchalik matnda - Sug'urtalovchi deb yuritiladi) tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan ishlab chiqilgan bo'lib, “Hamkorbank” ATB (keyinchalik matnda - Naf oluvchi deb ataluvchi) mijozlariga Umumiy sug'urta soxasidagi 8 va 9 klasslari bo'yicha Garovga qo'yilayotgan uskunalarini sug'urtalash shartnomalarini doirasida sug'urta xizmatlarini qo'rsatish tartib va shartlarini belgilaydi.

Mazkur Sug'urta qoidalarini bo'yicha sug'urta subyektlari bo'lib shartnoma bo'yicha Sug'urta qildiruvchi (Qarz oluvchi) yoki Garovga qo'yuvchi (agar mulk Qarz oluvchining bo'lmasa). Sug'urta qoidalarini bo'yicha tuzilgan shartnomalarning predmeti bo'lib Sug'urta qildiruvchida mulkdorlik, egalik qilish, idora qilish huquqi asosida bo'lgan, garovga qo'yilayotgan uskunadan mahrum bo'lishi (nobud bo'lishi) yoki uning shikastlanishidan sug'urtalash bo'lib, shu munosabat bilan Sug'urtalovchi sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchiga ushbu Sug'urta qoidalarida ko'rsatilgan shartlar va/yoki ushbu Sug'urta qoidalarining ajralmas qismi hisoblangan qo'shimcha kelishilgan shartlar, istisnolar va ilovalarga muvofiq sug'urta tovonini quyida ko'rsatilgan hajm va muddatda to'lash majburiyatini, Sug'urta qildiruvchi esa ushbu Sug'urta qoidalarida ko'rsatilgan tartib va muddatda sug'urta mukofotini to'lash majburiyatini oladi.

1.2. Ushbu Sug'urta qoidalarini bo'yicha sug'urta obyekti bo'lib sug'urta hodisasi sodir bo'lganda ushbu Sug'urta qoidalarida ko'rsatilgan uskunadan mahrum bo'lish (nobud bo'lish) yoki uning shikastlanishi oqibatida Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchining foydalanish, egalik qilish, idora qilish bilan bog'liq, O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga zid bo'lmagan mulkiy manfaatlarini hisoblanadi.

1.3. Ushbu Sug'urta qoidalariga muvofiq tuzilgan shartnomalarda (polislarda) Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchiga Ariza-So'rovnoma (2-ilova) va boshqa har qanday taqdim etilgan hujjatlarni va ma'lumotlarni ushbu Sug'urta qoidalarining ajralmas qismi ekanligini, shuningdek to'g'ri va haqiqiy ekanligini tasdiqlaydi.

1.4. Sug'urta qoidalarining asosida tuzilgan shartnomalar (polislar) mazkur Sug'urta qoidalarining 3-ilovasi hisoblangan deklaratsiyada ko'rsatilgan-kredit shartnomasining ta'minoti sifatida garovga qo'yilayotgan uskunani sug'urtalash obyekti ekanligini Sug'urta qildiruvchi xamda Qarz oluvchilar o'z imzolari(muhrlari) bilan, Sug'urtalovchi esa sug'urta polisi taqdim qilishi orqali tasdiqlaydilar.

2-BO'LIM. UMUMIY ATAMALAR

Quyida keltirilgan, ushbu Sug'urta qoidalarida foydalanilgan atamalar quyidagi ma'nolarga ega:

2.1. **Sug'urtalangan uskuna (sug'urta predmeti)** – sug'urta joyida o'rnashgan, ushbu Sug'urta qoidalarining 3-ilovasida tavsiflangan uskuna.

2.2. **Sug'urta qiymati** – Sug'urta qoidalarini tuzish paytida taraflarning kelishuviga ko'ra aniqlanadigan, sug'urta manfaati bilan bog'lanadigan uskuna qiymati (FK 935).

2.3. **Sug'urta puli** – Sug'urta qoidalari bilan belgilanadigan, sug'urta obyekti sug'urtalangan, sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Sug'urtalovchi javobgarligi hajmining chegarasini o'zida aks ettiruvchi pul mablag'lari miqdori.

2.4. **Sug'urta mukofoti (sug'urta badali/to'lovi)** – Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchiga ushbu Sug'urta qoidalarida belgilangan tartib va muddatda sug'urta uchun to'lashi shart bo'lgan to'lov. Sug'urta qoidalarida sug'urta mukofotini bosqichma-bosqich, navbatdagi sug'urta badallari ko'rinishida to'lanishi nazarda tutilishi mumkin.

2.5. **Sug'urta hodisasi** – sug'urtalangan turar-joy binosining ushbu Sug'urta qoidalarini 4-bo'limida ko'rsatilgan sug'urta xodisalari natijasida shikastlanishi yoki nobud bo'lishi

2.6. **Sug'urta tovon** – sug'urta hodisasi sodir bo'lganda sug'urtalangan turar-joy binosiga yetkazilgan zararni qoplash uchun sug'urta puli chegarasida to'lanadigan pul mablag'i;

2.7. **Sug'urta polisi** – QR-kodli sug'urta polisi – Sug'urtalovchining sug'urta tovonni to'lash bo'yicha majburiyatlari kuchga kirganligini tasdiqlovchi, Sug'urta qildiruvchiga sug'urta mukofoti to'langandan keyin beriladigan hujjat (*sug'urta polisining haqqoniyligi QR-kodni skaner qilish orqali tekshirilishi mumkin*);

2.8. **Sug'urta qoidalarining muddati** – Sug'urta qoidalari amalda bo'ladigan davr;

2.9. **Sug'urta davri** – ushbu Sug'urta qoidalariga asosan tuzilgan shartnomalarni/(polislarni) sug'urta amal qiladigan vaqt davri bo'lib, Sug'urta davrining boshlanishi va tugashi vaqti Sug'urta polisida ko'rsatiladi;

2.10. **Sug'urta muddati** – sug'urta polisida ko'rsatilgan davr. Ushbu Sug'urta qoidalari bilan shartlashilgan Sug'urta qoidalari shartnomasi kuchga kirgandan so'ng sodir bo'lgan sug'urta hodisalariga nisbatan qo'llaniladi va sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta muddati mobaynida amalda bo'ladi.

2.11. **Sug'urta (hududi) joyi** – Sug'urtalovchi sug'urta himoyasini taqdim etadigan, sug'urtalangan uskuna joylashgan o'rnini. Sug'urta joyi Sug'urta qoidalarining 3-ilovasida Shartnomalarda/Polislarda ko'rsatiladi.

3-BO'LIM. MAXSUS ATAMALAR

Quyida keltirilgan, ushbu Sug'urta qoidalarida foydalanilgan atamalarning boshqa ma'nolari alohida kelishilmagan bo'lsa, ular quyidagi ma'nolarga ega:

3.1. **Yong'in** – o't oldirish va ushlab turish uchun maxsus mo'ljallangan joylardan tashqariga ixtiyoriy ravishda tarqalish xususiyatiga ega olov.

3.2. **Portlash** – gaz yoki bug'larning kengayishiga asoslangan, katta miqdordagi energiyaning shiddat bilan otilib chiqishi. Rezervuar portlashi bo'lib rezervuar ichkarisida va tashqarisidagi bosim tenglashishiga olib keladigan darajada rezervuar devorlarining yorilishi. Agar rezervuar ichida kimyoviy reaksiyaning tez kechishi natijasida portlash sodir bo'lsa, uning devorlari yorilmagan bo'lsa ham, bundan yetkazilgan zarar sug'urta bilan qoplanadi. Vakuum yoki gazlarning siyraklashishi natijasida yetkazilgan zarar sug'urta qilinmaydi.

3.3. **Yashin urishi** – uskunadan mahrum bo'lishga (nobud bo'lishiga) olib keluvchi, unga yashinning to'g'ridan-to'g'ri tegishi (yashin – bulutlar o'rtasidagi yoki bulut va yer o'rtasidagi elektr razryadi). Yashinning issiq ta'siri va yashin oqibatida havo bosimi ta'siri ham sug'urta bilan qoplanadi.

3.4. **Zilzila** – yer qarida muntazam sodir bo‘ladigan, yerning ustki qismi silkinishi va tebranishi bilan kuzatiladigan tabiiy jarayonlar natijasi.

3.5. **Suv toshqini** – daryo, ko‘l, dengiz sathining ko‘tarilishi yoki damba, to‘g‘on buzilishi natijasida hududni sezilarli darajada suv bosishi.

3.6. **Ko‘chki** – shamol yoki yerusti yoki yerosti suvlarning ta‘sirida, qirg‘oq yonbag‘irlarini yuvilishi va jinslarning og‘irlik kuchi ta‘sirida yoki zilzila natijasida tog‘ jinslarining qulashi.

3.7. **Yer siljishi** – dengizlar, ko‘llar, daryolar, jarliklar yaqinida, chuqurliklarning, kanalarning tik qiyaliklari, shuningdek tog‘larda o‘z og‘irlik kuchi ta‘sirida yer massasining sekin siljishi.

3.8. **Dovul** – tezligi 29 m/s dan ortiq bo‘lgan kuchli shamol. Shamol tezligi O‘zbekiston Respublikasi Gidrometmarkazining hududiy muassasalari ma‘lumotnomalari bilan tasdiqlanadi.

3.9. **Do‘l urishi** – do‘lning bevosita ta‘siri oqibatida sug‘urtalangan uskunani har qanday yo‘qotilishi yoki shikastlanishini anglatadi.

3.10. **Jala** – 12 soat yoki undan kam vaqtda 30 mm yoki undan ortiq katta miqdorda yog‘ingarchilik bo‘lishi bilan kuzatilgan kuchli yomg‘ir.

3.11. **Qalin qor yog‘ishi** – bunday qor yog‘ishi ushbu hudud uchun kamdan-kam (g‘ayrioddiy) holat bo‘lishi sharti bilan qisqa vaqt oralig‘ida odatdagidan ko‘p miqdorda – 12 soat va undan kam vaqtda 20 mm va undan ko‘p qor yog‘ishi. Xo‘jasizlik sababli sekin-asta ko‘p miqdorda qor to‘planishi qalin qor yog‘ishidan farqlanadi.

3.12. **Suvdan zararlanish** – ichimlik suvi, oqava suvlar, isitish tizimlari, yong‘inni o‘chirish va haroratni maromida saqlash tizimlaridan chiqqan suv yoki suyuqlikning sug‘urtalangan uskunaga jismoniy ta‘sir qilishi yoki Sug‘urta qildiruvchilarga tegishli bo‘lmagan qo‘shni joylardan suv kirishi.

3.13. **Buzib o‘g‘irlik qilish** – ushbu Sug‘urta qoidalari bo‘yicha sug‘urta hududi sarhadidagi yopiq joyga yoki boshqa yopiq omborga kirilganligiga, shuningdek ko‘rsatilgan joydan ketilganligiga ishora qiluvchi quyidagicha izlar (jinoyatkor o‘zlashtirish maqsadida bu joyga oddiy yo‘l bilan kirib, u yopilishga qadar u yerda xufiyona qolgan) bo‘lsa, uskunani o‘zlashtirish bo‘lib hisoblanadi:

a) odatdagi holatda odamlar kirishi uchun mo‘ljallanmagan tuynuklar (masalan, havo almashtirish tuynuklari) orqali;

b) to‘siqlar, devorlar tomlardan tuynuk ochish orqali;

b) eshiklarni buzish, oynalarga shikast yetkazish, ochqich, yasama kalitlari yoki texnik vositalardan foydalanish orqali (egasi tomonidan yoki egasining topshirig‘iga ko‘ra boshqa shaxslar tomonidan haqiqiy kalit asosida ishlab chiqarilgan kalitlar yasama kalitlar hisoblanmaydi). Ochqichdan foydalanib buzish bo‘lib buzilganlikni aniqlasa bo‘ladigan, noqonuniy ravishda qulfnı ochqichda yoki boshqa vositalar bilan ochish hisoblanadi. Qulfnı haqiqiy kalit yoki uning nusxasi bilan ochish ochqichda ochish bo‘lib hisoblanmaydi.

3.14. **Uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari** – sug‘urtalangan uskunani uchinchi shaxslarning yondirishi, sindirishi, buzishi, shuningdek boshqa noqonuniy/huquqqa zid harakatlari natijasida undan mahrum bo‘lish yoki uning shikastlanishi.

Izoh. “Uchinchi shaxslar” deganda Sug‘urta qildiruvchi bilan Sug‘urta qoidalariviy munosabatda bo‘lmagan har qanday jismoniy yoki yuridik shaxs tushuniladi. Sug‘urta qildiruvchi, uning oila a‘zolari, uning xodimlari, shuningdek Sug‘urta qildiruvchining nomidan ish yurituvchi jismoniy va yuridik shaxslar uchinchi shaxs hisoblanmaydi.

3.15. **Yer usti transport vositalari bilan to‘qnashishi** – sug‘urtalangan uskuna har qanday yer usti transport vositasi bilan to‘qnashishi natijasida yo‘qotilishi yoki shikastlanishini anglatadi.

3.16. **Uchuvchi vositalarning qulashi** – uchuvchi apparatlar, ularning qismlari yoki yuklari tushishi natijasida sug‘urtalangan uskunani har qanday bevosita yo‘qotilishi yoki shikastlanishini anglatadi.

4-BO'LIM. SUG'URTA HODISASI VA TAVAKKALCHILIKLARI

4.1. Sug'urta hodisasi bo'lib mazkur Sug'urta qoidalarining 5-bo'limida nazarda tutilgan istisnolardan tashqari quyidagilar natijasida uskunadan mahrum bo'lish (nobud bo'lishi) yoki uning shikastlanishiga olib kelgan va Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash majburiyatini keltirib chiqargan, sodir bo'lgan voqea hisoblanadi:

- yong'in, portlash, yashin urishi;
- zilzila, suv toshqini;
- yer siljishi, ko'chki;
- kuchli shamol, dovul, do'l urishi, jala, ko'p qor yog'ishi;
- suvdan zararlanish;
- buzib o'g'irlik qilish, buzilishi, uchinchi shaxslarning noqonuniy harakatlari;
- transport vositalari bilan to'qnashishi, uchuvchi apparatlarning qulashi.
- predmetlarning urilishi

5-BO'LIM. ISTISNOLAR

5.1. Har qanday holatlarda quyidagi shart-sharoit va/yoki quyidalar natijasida yuzaga kelgan zararlar qoplanmaydi:

a) uskunaning Sug'urtalovchining majburiyatlari kuchga kirgan paytda mavjud bo'lgan yoki Sug'urta qildiruvchiga yoki uning idoralariga yoki vakolatli shaxslariga ma'lum bo'lishi shart bo'lgan nuqsonlari;

b) sodir bo'lishi bilan zararni keltirib chiqargan Sug'urta qildiruvchi yoki uning vakillari sug'urtalangan uskunadan foydalanish qoidalarini buzishi;

d) foydalanishda doimiy ta'sir etuvchi omillar (eskirish, zanglash) yoki ob-havo omillari muntazam ta'sir etishi yoki sug'urtalangan uskunadan foydalanmaslik sababli sekin-asta shikastlanish;

e) Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchiga shikastlangan buyumlarni yoki ularning qoldiqlarini taqdim etishni rad etishlari, ular qoldiqsiz yo'qotilishi holatlari bundan mustasno;

f) uskunani (shu jumladan sug'urta hududida) tashilishi shuningdek, ushbu Sug'urta qoidalarini bilan shartlashilgan joydan tashqarida tashilishi;

g) yong'in natijasida yuzaga kelmagan olovdan shikastlanish, shuningdek sug'urtalangan qayta ishlash yoki boshqa maqsadlarda (masalan quritish, eritish, dazmollash, tutatish, qovurish, issiklik bilan ishlov berish yoki metallarni eritish va h.k) uskunaga olov, issiqlik yoki boshqacha harorat bilan ishlov berish natijasida shikastlanishlar sug'urta bilan qoplanmaydi va bu bo'yicha tovon to'lanmaydi;

h) har qanday turdagi bilvosita zararlar, hatto ular yong'in yoki boshqa sug'urta hodisasi natijasida kelib chiqqan bo'lsa ham, barcha hollarda qoplanmaydi. Ushbu Sug'urta qoidalarini bo'yicha bilvosita zararlar bo'lib sug'urta hodisasi bilan bilvosita bog'liq voqealar (yo'qotilgan foyda, renta to'lovlari, jarimalar, penyalar va ushbu Sug'urta qoidalarida ko'rsatilmagan zararlar) tushuniladi;

i) Sug'urta qildiruvchi yoki Naf oluvchining (ularning rahbar xodimlari yoki vakillari hamda o'z nomidan, lekin Sug'urta qildiruvchi yoki Naf oluvchi manfaatini yoqlab harakat qilgan boshqa shaxs, agar uning aybi mutasaddi idoralar tomonidan aniqlangan bo'lsa) sug'urta hodisasi sodir bo'lishga qaratilgan qasddan qilgan harakatlari, o'z fuqarolik burchi yoki Sug'urta qildiruvchi yoki uchinchi shaxslarning hayoti, sog'lig'i, sha'ni va qadr-qimmatini himoya qilish hollari bundan mustasno;

5.2. Sug'urta voqeasi quyidagilar natijasida sodir bo'lsa, Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lashdan ozod bo'ladi:

- a) urush yoki harbiy harakatlar;

b) qo'zg'olon, inqilob, isyon, g'alayon, lokaut, fuqarolar tartibsizliklari, ommaviy tartibsizliklar, ushbu xarakatlar yuz berganligi yuzasidan vakolatli davlat organlarining xulosasi takdim qilingan hollarda;

d) terrorchilik harakati;

e) musodara, rekvizitsiya, sug'urtalovchi sug'urtalangan mol-mulk davlat organlarining farmoyishi bilan olib qo'yilishi, musodara qilinishi, rekvizitsiya qilinishi, xatlanishi yoki yo'q qilib tashlanishi oqibatida ko'rilgan zarar uchun sug'urta tovonini to'lashdan ozod qilinadi

f) yadroviy nurlanish yoki radioaktiv zaharlanish yoki radioaktiv ifloslanish.

5.2. Sug'urtalovchi O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida ko'rsatilgan hollarda ham sug'urta tovonini to'lashdan ozod bo'ladi.

6-BO'LIM. SUG'URTA PULI VA SUG'URTA MUKOFOTI

6.1. Ushbu Sug'urta qoidalarini bo'yicha sug'urta summasi va sug'urta mukofoti xar bir sug'urta polisi bo'yicha alohida Sug'urta qoidalarining 4 - ilovasida ko'rsatiladi, polislar bo'yicha sug'urta mukofoti Sug'urta qoidalarining 1-ilovasidagi tarif asosida xisoblanadi.

6.2. Ushbu Sug'urta qoidalarini bo'yicha barcha o'zaro hisob-kitoblar milliy valyuta (so'm)da amalga oshiriladi.

7-BO'LIM. SUG'URTA SHARTNOMALAR/POLISLARNI TUZISH TARTIBI VA AMALDA BO'LISH MUDDATI

7.1. Mazkur Sug'urta qoidalariga asosan sug'urtalovchi va naf oluvchi orasida Bosh kelishuv tuziladi va xar bir sug'urta qildiruvchiga elektron sug'urta Polis berish va Sug'urta qoidalariga qo'shilish yo'li bilan shartnomalar tuziladi. Elektron sug'urta polisi (Sug'urta qoidalarining 4-ilovasi) amaldagi sug'urta faoliyati qonunchiligi talablari doirasida rasmiylashtiriladi hamda sug'urta mukofoti / uning birinchi navbatdagi badali Sug'urtalovchining bank hisob raqamiga kelib tushgandan keyin zudlik bilan onlayn rejimda Sug'urta qildiruvchiga/Qarz oluvchiga taqdim yetiladi. Sug'urta mukofoti to'liq to'lanmagan taqdirda Sug'urta polisi sug'urta mukofotiga mutanosib muddatga beriladi

7.2. Sug'urta mukofoti yoki uning birinchi qismi o'z vaqtidan keyin to'lansa, ushbu Sug'urta qoidalarini bo'yicha tuzilgan shartnomalar/polislarda kelishilgan sug'urta mukofoti yoki uning birinchi qismi to'langan paytdan boshlab kuchga kiradi va ushbu Sug'urta qoidalarining 4-ilovasida ko'rsatilgan muddat mobaynida amalda bo'ladi. Sug'urtalovchining majburiyatlari boshlanishi Sug'urta mukofoti yoki uning birinchi qismi to'langan payt bo'lib Sug'urtalovchining bank hisob raqamiga pul mablag'lari kirim qilingan kun hisoblanadi.

7.3. Ushbu Sug'urta qoidalarini bilan shartlashilgan Sug'urta shartnomalar/polislari kuchga kirgandan keyin sodir bo'lgan sug'urta hodisalariga taalluqli va sug'urta polisida ko'rsatilgan sug'urta muddati mobaynida amalda bo'ladi.

7.4. Agar Sug'urta qildiruvchi Naf oluvchi oldidagi majburiyatlarini to'liq hajmda bajarsa, sug'urta muddati tugagunga qadar Sug'urta qildiruvchi naf oluvchi bo'lib hisoblanadi.

8-BO'LIM. SUG'URTA SHARTNOMALAR/POLISLAR BEKOR BO'LISHI VA TUGATILISHI

8.1. Mazkur Sug'urta qoidalarini asosida tuzilgan shartnomalar/polislar istalgan tarafining yozma shakldagi arizasiga ko'ra undan istalgan vaqtda, bu haqda bekor qilish taxmin qilingan sanadan ko'pi bilan 15 (o'n besh) kun oldin ma'lum qilinishi shartida, bekor qilinishi/ Sug'urta qoidalaridan voz kechilishi mumkin. Mazkur Sug'urta qoidalarining bekor qilinishi uchinchi taraf manfaatlariga daxl qiladigan holatlarda, shu tarafning yozma shakldagi roziligi kerak bo'ladi.

8.2. Agar Sug'urta qildiruvchining mazkur Sug'urta qoidalarini muddatidan oldin bekor

qilish to'g'risidagi talabi mazkur Sug'urta qoidalarida ko'rsatilgan sabablarga asoslangan bo'lsa, sug'urta mukofotining bir qismi sug'urta amal qilgan vaqtga mutanosib ravishda qaytarib beriladi.

8.3. Naf oluvchi Kredit Sug'urta qoidalarisi/bitimi bo'yicha Sug'urta qildiruvchiga pul mablag'larini o'tkazib bermagan holatda (istalgan sababga ko'ra) kredit va garov Sug'urta qoidalarisi bekor qilinadi, sug'urta qildiruvchining arizasi bilan Sug'urta qoidalarisi (polis) muddatidan avval bekor qilinadi. Bu holatda, Sug'urtalovchiga to'langan sug'urta mukofotining bir qismi sug'urta amal qilgan vaqtga mutanosib ravishda qaytarib beriladi.

8.4. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi, Sug'urta qoidalarini bajarishdan istagan paytida voz kechishga haqli. Bu holatda, Sug'urtalovchiga sug'urta mukofotining bir qismi sug'urta amal qilgan vaqtga mutanosib ravishda, qaytarib berilayotgan sug'urta mukofotining 25% miqdorida chegirib qolgan holda, qaytarib beriladi.

8.5. Mazkur Sug'urta qoidalarining 8.1., 8.2., 8.3. bandlarida ko'rsatilgan holatlarda Sug'urta qoidalarisi bekor qilinganda, agar sug'urta hodisalari bo'yicha zararni qoplash to'g'risida talabnoma taqdim qilingan, Sug'urtalovchi tomonidan ular qoplanishi lozim bo'lgan va/yoki har qanday sug'urta to'voni to'langan bo'lsa, sug'urta to'voni qaytarib berilmaydi.

8.6. Mazkur Sug'urta qoidalarisi quyidagi holatlarda bekor bo'ladi:

- a) amal qilish muddati tugaganda;
- b) Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi/Garovga qo'yuvchi oldida Sug'urtalovchining mazkur Sug'urta qoidalarisi bo'yicha majburiyatlari to'liq bajarib bo'linganda;
- d) Sug'urta qoidalarisi sud nomonidan haqiqiy emas deb topilganda;

9-BO'LIM. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

Ushbu Sug'urta qoidalarisi doirasida:

9.1. Sug'urtalovchining huquqlari:

9.1.1. sug'urtalangan uskunaning holatini, shu jumladan Ariza-so'rovnoma ko'rsatilgan shartlarga to'g'ri kelishini tekshirishi;

9.1.2. Sug'urta qildiruvchi yoki Naf oluvchi ushbu Sug'urta qoidalarining talablarini bajarishini tekshirishi;

9.1.3. sug'urtalangan uskunani saqlab qolish va qutqarishda ishtirok etishi, Sug'urta qildiruvchi va Naf oluvchi uchun majburiy bo'lgan, zararni kamaytirishga qaratilgan yo'riqnomalar berishi. Sug'urtalovchining yoki uning vakillarining bu harakatlari Sug'urtalovchi sug'urta to'vonini to'lash majburiyatini tan olganligini anglatmaydi;

9.1.4. zararlangan uskunani Sug'urtalovchiga bu haqda ma'lum bo'lishi bilan o'rikdan o'tkazishi;

9.1.5. zararni kamaytirish uchun u zarur deb hisoblagan choralarni ko'rishi, Sug'urta qildiruvchi yoki Naf oluvchining yozma topshirig'iga ko'ra uning huquqlarini himoya qilishi va zararlarni hal qilish bo'yicha barcha ishlarni yuritishi;

9.1.6. voqea tavsifi va tavsilotlaridan kelib chiqib, ushbu Sug'urta qoidalarining 10.2-bandida ko'rsatilgan hujjatlarni hammasini talab qilmasdan ham sug'urta voqeasini sug'urta hodisasi deb tan olish haqida qaror qabul qilishi va sug'urta to'vonini to'lashi;

9.1.7. agar ushbu Sug'urta qoidalarisi tuzilgandan keyin Sug'urta qildiruvchi sug'urta hodisasi sodir bo'lishi ehtimolini va u sodir bo'lishidan yetishi mumkin bo'lgan zararlar miqdorini aniqlash uchun muhim ahamiyatga ega, Sug'urtalovchiga avvaldan yolg'on ekanligi ma'lum bo'lgan ma'lumotlarni xabar qilsa, ushbu Sug'urta qoidalarini haqiqiy emas deb topilishini talab qilishi. Muhim bo'lib Sug'urtalovchi bilan Ariza-so'rovnomada kelishilgan ma'lumotlar hisoblanadi.

9.2. Sug'urtalovchining majburiyatlari:

9.2.1. ushbu Sug'urta qoidalarida ko'rsatilgan tartib va muddatlarda Sug'urta qildiruvchiga Sug'urta polisini berishi;

9.2.2. ushbu Sug'urta qoidalarisi amalda bo'lgan muddatda Sug'urta qildiruvchiga sug'urta

masalalari bo'yicha maslahatlar berishi;

9.2.3. Sug'urtalovchi sug'urta hodisasi deb tan olgan holatlar bo'yicha ushbu Sug'urta qoidalarida ko'rsatilgan muddatda sug'urta to'lovini amalga oshirishi;

9.2.4. ushbu Sug'urta qoidalarini amal qilishi mobaynida Sug'urta qildiruvchi va/yoki Naf oluvchidan olingan axborotni sir saqlashi, Sug'urtalovchi O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq davlat idoralariga axborot taqdim etishi shart bo'lgan hollar bundan mustasno;

9.3. **Sug'urta qildiruvchi /Naf oluvchining huquqlari:**

9.3.1. Tomonlarning kelishuvchiga ko'ra ushbu Sug'urta qoidalariga o'zgarishlar va qo'shimchalar kiritishi;

9.3.2. so'rovnoma ko'ra ushbu Sug'urta qoidalarini bo'yicha maslahatlar olishi;

9.3.3. sug'urta polisi yo'qolgan taqdirda uning dublikatini olishi;

9.3.4. Sug'urtalovchi sug'urta to'lovini rad etishi ustidan sudga shikoyat qilishi.

9.4. **Sug'urta qildiruvchining majburiyatlari:**

9.4.1. Sug'urta qoidalarini tuzayotganda Sug'urtalovchiga sug'urta hodisasi sodir bo'lishi ehtimolini va u sodir bo'lishidan yetishi mumkin bo'lgan zararlar miqdorini aniqlash uchun sezilarli ahamiyatga ega, unga ma'lum bo'lgan barcha tavsilotlar, shuningdek sug'urtalangan uskunaga nisbatan tuzilayotgan yoki tuzilgan barcha sug'urta shartnomalari haqida, agar bu tavsilotlar Sug'urtalovchiga ma'lum bo'lmasa yoki ma'lum bo'lishi shart bo'lmasa, xabar qilishi;

9.4.2. ushbu Sug'urta qoidalarini shartlariga muvofiq sug'urta hodisasi deb tan olinishi mumkin bo'lgan voqea sodir bo'lsa:

a) darhol, lekin har qanday holatdan qat'iy nazar sug'urta voqeasi sodir bo'lgan paytdan boshlab 15 (o'n besh) ish kunidan kechiktirmay Sug'urtalovchi yoki uning vakilini voqea sodir bo'lganligi haqida xabardor qilishi;

b) tegishli xabarni bergandan keyin 30 (uttiz) ish kuni ichida Sug'urtalovchiga zararga ta'sir etgan, unga ma'lum sabablar va tavsilotlarni ko'rsatgan holda yozma arizani yo'llashi;

d) darhol uskunani qutqarish uchun zararni yanada ko'payishini va qo'shimcha zarar yuzaga kelishini oldini olish bo'yicha imkoni bor choralarni ko'rishi, shu jumladan zararlangan uskunani qo'riqlanishini ta'minlashi va Sug'urtalovchidan olingan yo'riqnomalarni bajarishi;

e) yong'in yoki yashin urishi, portlash yoki buzib o'g'irlik qilinishi holatida bu haqda darhol tegishli idoralarga xabar qilishi (yong'in xavfsizligi idorasi, ichki ishlar idorasi, FVV hududiy idoralari va sh.k.);

f) shikastlangan uskunani Sug'urtalovchining vakili kelguniga qadar sodir bo'lgan voqeadan keyingi holatida saqlashi. Zararning ko'rinishi o'zgartirish faqat xavfsizlik, zarar miqdorini kamaytirish nuqtayi nazaridan kelib chiqib, Sug'urtalovchining roziligi bilan yoki Sug'urtalovchini xabardor qilgandan keyin amalga oshirilishi mumkin. Bunda Sug'urta qildiruvchi voqea ko'rinishini foto- yoki video tasvirga tushirishi shart;

g) Sug'urtalovchiga shikastlangan uskunani yoki uning qoldiqlarini, shuningdek uning qismlari, detallari va unga tegishli jihozlarni yoki ularning qoldiqlarini ko'rsatishi;

h) Sug'urtalovchiga shikastlangan, nobud bo'lgan yoki yo'qotilgan uskunaning ro'yxatini taqdim etishi;

i) zarur hollarda, sug'urta hodisasi sodir bo'lgan paytda mulkdorlik huquqi yoki nobud bo'lgan (yo'qolgan) uskunadagi boshqa mulkiy manfaati mavjudligini tasdiqlovchi hujjatni (mulkdorlik huquqi haqida guvohnoma, oldi-sotdi shartnomasi, ijara shartnomasi va sh.k.) taqdim etishi;

9.5. Ushbu Sug'urta qoidalarini bilan nazarda tutilgan barcha xabarlar tomonlar tarafidan yozma shaklda yoki xabar mazmuni va sanasini saqlash imkonini beruvchi aloqa vositalari orqali amalga oshiriladi.

10-BO'LIM. DA'VOLARNI KO'RIB CHIQISH TARTIBI

10.1. Ushbu Sug'urta qoidalarini doirasida Sug'urtalovchidan sug'urta to'lovini talab qilishga asos bo'lishi mumkin bo'lgan voqea sodir bo'lganda Sug'urta qildiruvchi Sug'urtalovchiga imkoni bo'lishi bilanoq, 15 (o'n besh) kundan kechiktirmay darhol xabar berishi va voqea sodir bo'lgandan keyin 15 (o'n besh) ish kuni mobaynida Sug'urtalovchiga voqea sabablari va tafsilotlarini ko'rsatgan holda yozma xabarnomani jo'natishi shart;

10.2. Sug'urta to'lovini to'lovi haqida arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinishi shart:

- sug'urta to'lovini to'lovi haqida ariza;
- sug'urta voqeasi manbaasi va sababi ko'rsatilgan dalolatnoma;
- Sug'urta polisi (asli);
- baholovchi tashkilotning yetkazilgan zarar miqdori haqida dalolatnomasi/ xulosasi/hisoboti (agar mavjud bo'lsa);
- ushbu Sug'urta qoidalarini shartlariga muvofiq mazkur sug'urta voqeariga tegishli boshqa hujjatlar (agar mavjud bo'lsa).

10.3. Sug'urta qoplamasi to'lovi haqidagi arizada Sug'urta qildiruvchi quyidagilarni ko'rsatishi shart:

- sug'urta voqearining sanasi va tavsilotlari;
- sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Sug'urta qildiruvchining harakatlari;
- zararining va Sug'urta qildiruvchi da'vo qilayotgan sug'urta to'vonining tegishli ro'yxati va miqdori ko'rsatilgan tahminiy miqdori;
- uchinchi shaxslar zararining o'rnini qoplaganligi miqdori (bunday qoplama olingan taqdirda).

10.4. Sug'urta qildiruvchi har qanday yo'qotish va/yoki shikastlar haqida xabar qilgan taqdirda Sug'urtalovchi o'z xodimini yoki boshqa shaxsni da'voni ko'rib chiqish va sodir bo'lgan voqearning turi, sababi va tavsilotlarini batafsil o'rganish uchun yuborishga haqli.

10.5. Sug'urtalovchi zararni oldini olish yoki kamaytirish maqsadida amalga oshirilgan xarajatlarni, agar sug'urta shartlariga muvofiq bu zarar qoplanishi lozim bo'lsagina, qoplaydi.

10.6. Ushbu voqeariga tegishli barcha hujjatlar/axborotlar/ma'lumotlar taqdim etilgandan keyin Sug'urtalovchi sodir bo'lgan voqearni tan olish yoki tan olmaslik haqida qaror qabul qiladi. Sodir bo'lgan voqea sug'urta hodisasi deb tan olinsa, to'lanishi lozim bo'lgan sug'urta to'voni miqdori belgilanadi va Sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnomada ko'rsatiladi.

Sug'urtalovchi voqearni sug'urta hodisasi deb tan olish yoki olmaslik to'g'risidagi qaror qabul qilinishini keyinga qoldirishi mumkin:

a) agar unda sug'urta hodisasini tasdiqlovchi hujjatlar haqiqiy emasligi to'g'risida ma'lumot bo'lsa, ushbu hujjatlar haqiqiy ekanligi tasdiqlanganiga qadar;

b) agar tegishli vakolatli idoralar tomonidan sug'urta hodisasiga olib kelgan shart-sharoitlar yuzasidan jinoiy ish yoki tergov ishi qo'zg'atilgan bo'lsa, tergov yoki sud ishi tugunga qadar.

10.8. Zarar, buzilish yoki shikastlanish qoplanishi lozimligini isbotlash Sug'urta qildiruvchi zimmasida.

10.9. Zarur hollarda sug'urta hodisasi yuzaga kelganligi vakolatli davlat idoralari tomonidan tasdiqlanadi.

11-BO'LIM. SUG'URTA TO'VONI MIQDORI VA TO'LASH TARTIBI

11.1. Sug'urta to'voni quyidagicha to'lanadi:

- a) uskunadan mahrum bo'lganda (nobud bo'lishi) – yo'qotilgan uskunaning ushbu Sug'urta qoidalariga asosan tuzilgan shartnoma sanasidagi sug'urta puli miqdorida (4-ilovaga muvofiq);
- b) uskuna shikastlansa (qisman buzilsa) – tiklash xarajatlari miqdorida, lekin sug'urta pulidan oshmagan miqdorda.

11.2. Tiklash xarajatlari o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- a) ta'mirlash (tiklash) uchun materiallar va ehtiyot qismlar;

b) ta'mirlash bo'yicha ishlarni to'lab berish xarajatlari;
d) materiallarni ta'mirlash joyiga yetkazib berish hamda sug'urtalangan uskunani sug'urta hodisasidan avvalgi holatigacha tiklash uchun zarur boshqa xarajatlar;

e) zarar miqdorini aniqlash maqsadida mustaqil tekshiruv o'tkazilishi bilan bog'liq xarajatlar.

11.3. Quyidagilar tiklash xarajatlari deb hisoblanmaydi va Sug'urta qoidalarini bilan qoplanmaydi:

a) sug'urtalangan obyektni yaxshilashdan kelib chiqqan xarajatlar;

b) vaqtinchalik yoki yordamchi ta'mirlash yoki tiklashdan kelib chiqqan xarajatlar;

e) sug'urtalangan uskunani o'zgartirish/takomillashtirish/yangilash bilan bog'liq xarajatlar;

f) zaruridan ortiq boshqa xarajatlar;

g) sug'urtalangan uskuna sug'urta hodisasi yoki boshqa omillar ta'sirida (tabiiy va sh.k.) tovar ko'rinishini yo'qotishi.

11.4. Agar sug'urtalangan uskunadan xavfsiz foydalanish uchun uni ta'mirlash kifoya bo'lishiga qaramay, sug'urtalangan uskunaning zararlangan qismlari yoki buyumlari almashtirilsa, Sug'urtalovchi sug'urta tovonini ushbu qismlar yoki buyumlarni ta'mirlash qiymati miqdorida, lekin ularni almashtirish qiymatidan oshmagan miqdorda to'laydi.

11.5. Sug'urta qildiruvchi zararlangan bo'lsa ham, sug'urta hodisasidan keyin qolgan uskunadan voz kechish huquqiga ega emas. Bunday uskunaning qoldiq qiymati sug'urta tovonidan chegirib qolinadi.

Izoh: Qoldiq qiymat bo'lib nobud bo'lgan yoki shikastlangan uskunadan qolgan, shu jumladan zararlanmagan materiallar, qismlar va detallarni sotish yoki ularni metallolomga yoki chiqindi sifatida topshirishda qo'llaniladigan narxlarda aniqlanadigan qiymat hisoblanadi.

11.6. Agar Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi qoplamani uchinchi shaxslardan olgan bo'lsa, naf oluvchining roziligi bilan Sug'urtalovchi sug'urta shartlariga muvofiq to'lanishi kerak bo'lgan mablag' bilan uchinchi shaxslardan olingan mablag' o'rtasidagi farqni to'laydi. Sug'urta qildiruvchi yoki Naf oluvchi Sug'urtalovchiga bunday pullar olinganligi haqida 10 (o'n) ish kuni ichida xabar beradi.

11.8. Sug'urtalovchi sug'urta tovonini manfaatdor Tomonlar Sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnomani imzolanganlaridan so'ng 15 (o'n besh) kun ichida to'laydi.

11.9. Agar Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi sug'urta tovonini olgandan keyin sug'urta hodisasi natijasida mahrum bo'lingan qandaydir uskunani o'z ixtiyori/foydalanishi/idorasiga qaytarsa yoki aybdor yoki boshqa shaxs zarar o'rmini qoplasa, Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi Sug'urtalovchiga olingan sug'urta tovonini uskuna qaytarilgandan yoki zarar o'rni qoplangandan keyin 15 (o'n besh) ish kuni ichida Sug'urtalovchiga qaytarishi shart.

11.10. Agar qonun hujjatlari yoki ushbu Sug'urta qoidalariga muvofiq Sug'urta qildiruvchi yoki Naf oluvchini sug'urta tovoniga bo'lgan huquqidan to'liq yoki qisman mahrum qilishi ma'lum bo'lsa, Sug'urta qildiruvchi yoki Naf oluvchi Sug'urtalovchiga sug'urta tovonini yoki uning tegishli qismini qaytarishi shart.

11.11. Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash yoki rad etish to'g'risidagi qarori sug'urta tovonini to'lovi uchun murojaat etilgandan keyin o'n besh kundan kechiktirmay xabar qilinishi va rad etilgan taqdirda rad etilishining asoslangan sabablarini o'z ichiga olgan bo'lishi kerak.

11.12. Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'lashni rad etishi ustidan Sug'urta qildiruvchi yoki Naf oluvchi sudga shikoyat qilinishi mumkin.

12-BO'LIM. SUBROGATSIYA

12.1. Sug'urta tovonini to'langandan keyin Sug'urtalovchiga (to'langan pul miqdorida) Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchining zarar yetkazilganligida aybdor bo'lgan shaxslardan zararni qoplanishini talab qilish huquqi o'tadi.

Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi Sug'urtalovchiga sug'urta hodisasi uchun javobgar

shaxsdan talab qilish uchun zarur barcha hujjatlarni beradi.

13-BO'LIM. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI

13.1. Ushbu Sug'urta qoidalari va uning ilovalari bitta Sug'urta qoidalari bo'lib hisoblanadi va ushbu Sug'urta qoidalaridagi har qanday so'z yoki iboraga alohida ma'no berilgan bo'lsa, ular qaysi joyida foydalanilganligidan qat'iy nazar ushbu alohida ma'noga ega bo'lishi shart.

13.2. Sug'urta hodisasi tan olingandan keyin sug'urta tovonni to'lovi Sug'urtalovchi aybi bilan kechiktirilgan taqdirda kechiktirilgan har bir kun uchun sug'urta tovonining 0,1% miqdorida, lekin sug'urta tovonining 10% dan oshmagan miqdorda penya to'lanadi.

14-BO'LIM. BOSHQA SHARTLAR

14.1. Ushbu Sug'urta qoidalarining shartlarini o'zgartirish tomonlarning kelishuvi bilan bo'lishi mumkin. Sug'urta qoidalarini o'zgartirish to'g'risidagi kelishuv yozma shaklda amalga oshiriladi.

14.2. Ushbu Sug'urta qoidalari shartlari o'zgartirilgan taqdirda majburiyatlar Sug'urta qoidalarini o'zgartirish haqidagi yozma kelishuvda shartlashilgan sanadan boshlab o'zgartirilgan hisoblanadi.

14.3. Sug'urta qoidalari bo'yicha huquq va majburiyalarni Tomonlarning yozma rozilgisiz uchinchi shaxslarga berishga yo'l qo'yilmaydi.

14.4. Tomonlar ushbu Sug'urta qoidalarida kelishilmagan holatlar bo'yicha O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi, "Sug'urta faoliyati to'g'risida"gi, "Xo'jalik subyektlari faoliyatining Sug'urta qoidalariviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunlar va O'zbekiston Respublikasidagi amaldagi boshqa qonunlariga amal qiladilar.

14.5. Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida belgilangan hollardan tashqari sir saqlash javobgarligini va ushbu Sug'urta qoidalari, Ilovalar va ushbu Sug'urta qoidalari bilan bog'liq boshqa hujjatlarning mazmunini tegishli tomonning yozma rozilgisiz oshkor qilmaslikni zimmasiga oladilar.

15-BO'LIM. FORS-MAJOR

15.1. Tomonlar ushbu Sug'urta qoidalari bo'yicha majburiyatlarni qisman yoki to'liq bajarmasliklari Cug'urta Sug'urta qoidalarisi tuzilgandan keyin sodir bo'lgan, Tomonlar avvaldan bila olmagan va oqilona choralar orqali oldini ola olmagan favqulodda tavsifidagi voqealar oqibatida yengib bo'lmas kuch natijasida yuzaga kelgan javobgarlikdan ozod bo'ladilar.

15.2. Yengib bo'lmas kuch shart-sharoitiga Tomon ta'sir ko'rsata olmaydigan va sodir bo'lganligi uchun javobgar bo'lmagan voqealar kiradi, masalan: ushbu Sug'urta qoidalari predmetini ijrosiga to'sqinlik qiluvchi ish tashlashlar, hukumat hujjatlari va davlat idoralari qarorlari, har qanday tavsifdagi harbiy harakatlar.

15.3. Yengib bo'lmas kuch shart-sharoitini dalil qilayotgan Tomon boshqa tomonni bunday shart-sharoit yuzaga kelganligi haqida darhol yozma shaklda xabardor qilishi, bunda har qanday Tomon talabiga ko'ra bunday shart-sharoit yuzaga kelganligini tasdiqlovchi, tegishli idoradan berilgan hujjat taqdim etilishi shart.

15.4. Agar Sug'urta qoidalarining ushbu bo'limida ko'rsatilgan yengib bo'lmas kuch shart-sharoiti uch oydan ortiq davom etsa, har bir Tomon boshqa Tomonni xabardor qilgan holda ushbu Sug'urta qoidalarini tomonlarning roziligi bilan bekor qilishi mumkin. Bunda Tomonlar ushbu Sug'urta qoidalari bo'yicha bajarilayotgan va bajarilmayotgan qismlari yuzasidan o'rnatilgan tartibda yakuniy hisob-kitob qiladilar.

16-BO'LIM. BAHSLARNING HAL ETILISHI

16.1. Ushbu Sug'urta qoidalaridan kelib chiqadigan barcha bahslar va kelishmovchiliklar

muzokaralar orqali hal etiladi, kelishuvga erishilmagan taqdirda esa, ular O'zR qonun hujjatlariga muvofiq hal etiladi.

SUG'URTALOVCHINING YURIDIK MANZILI VA REKVIZITLARI:

"MY INSURANCE" AJ ST

Elektron pochta manzili: info@myinsurance.uz

Manzil: Toshkent shaxar,


Mirobod tumani, Kichik Mirobod-95

X/R: 20208 000 4 04786066 111

Bank: Toshkent sh. TIF "MILLIY BANKI" AJ

MFO: 00450

INN: 207 002 342, OKED: 65120

Handwritten signature and a circular stamp with a signature inside.

**“GAROVGA QO‘YILAYOTGAN MAXSUS TEXNIKANI” SUG‘URTALASH
BO‘YICHA SUG‘URTA TARIFI**

“MY INSURANCE” AJ ST hamda “Hamkorbank” ATB o‘rtasida tuzilgan Bosh shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan “Garovga qo‘yilayotgan uskunani” sug‘urtalash qoidalariga muvofiq Sug‘urta qildiruvchi / Qarz oluvchi tomonidan Sug‘urtalovchiga to‘lab beriladigan sug‘urta mukofotini hisoblab chiqishda qo‘llaniladigan sug‘urta tarifi:

T/r.	Sug‘urta amal qilish davri	Shartli sug‘urta tarifi* (%)	Hisoblash davri
1.	10 - yil va undan kam bo‘lganda	0,04%	yillik
2.	10 - yildan ko‘p bo‘lganda	0,03%	yillik

**Sug‘urta tarifi tomonlar kelishuviga ko‘ra ko‘paytirilishi yoki kamaytirilishi mumkin*

Q-kod
Sug'urtalash koidalar
bilan tanishish

"MY INSURANCE" AJ ST
Bosh direktori M.B Kucharovga
Qarz oluvchi / Sug'urta qildiruvchi
_____ dan

**"GAROVGA QO'YILAYOTGAN USKUNANI" SUG'URTALASH QOIDALARIDA BELGILANGAN
SHARTLARDA SUG'URTA (POLISI)NI TUZISH UCHUN
ARIZA - SO'ROVNOMA**

Ushbu Ariza-so'rovnoma bilan Sizdan quyidagi ma'lumotlar asosida sug'urta shartnomasini/polisini
tuzishingizni so'rayman.

1.	Qarz oluvchi / Sug'urta qildiruvchi	FIO
2.	Qarz oluvchining familiyasi, Ismi va Otasining ismi: Pasport ma'lumotlari: Mobil telefon raqami: Yashash manlisi:	_____ _____ _____ _____
3.	Kredit shartnomasi:	20__ yil "___" _____dagi _____-sonli shartnoma
4.	Kredit summasi:	_____ sum (raqamlar bilan va yozma ravishda)
5.	Kredit muddati:	20__ yil "___" _____dan 20__ yil "___" _____gacha
6.	Kredit maqsadi:	
7.	Garovga qo'yilayotgan uskunani manzili	
8.	Garovga qo'yilayotgan uskunani pasport ma'lumotlari	
9.	Sug'urta shartnomasi/polisining amal qilish muddati:	20__ yil "___" _____dan 20__ yil "___" _____gacha oxirgi kuni kirgan xolda
10.	Garovga qo'yilayotgan uskunani bozor qiymati:	_____ sum (raqamlar bilan va yozma ravishda)
11.	Sug'urta mukofoti miqdori	_____ sum (raqamlar bilan va yozma ravishda)

Ushbu Ariza-So'rovnomada ko'rsatilgan barcha ma'lumotlar haqqoniyligi va ishonchliligi tasdiqlayman.

Ushbu Ariza-So'rovnomani imzolar ekanman, "MY INSURANCE" AJ ST tomonidan tasdiqlangan "Garovga qo'yilayotgan uskunani" sug'urtalash qoidalarini (keyinchalik matnda – Sug'urtalash qoidalarini deb yuritiladi) bilan tanishganimni, Sug'urtalash qoidalarini qog'ozda menga taqdim qilinganligini, u bilan to'liq tanishganimni tasdiqlayman. Shuningdek ushbu Sug'urtalash qoidalarining elektron nusxasini olish imkoniyatini borligini menga tushuntirildi. Ushbu Sug'urtalash qoidalarini shartlariga o'z roziligimni bildiraman va tasdiqlayman.

(Qarz oluvchining Familiyasi, Ismi va Otasining ismi)

(imzo)

(sana)

Garovga qo'yilayotgan turar-joy binosini
sug'urtalash qoidalariga 3-ilova

SUG'URTA QOIDALARINING DEKLARATSIYASI

1.	Sug'urtalovchi:	"MY INSURANCE" AJ ST
2.	Sug'urta qildiruvchi:	
3.	Sug'urtalangan shaxs:	
4.	Naf oluvchi:	
5.	Garovga qo'yuvchi:	
6.	Sug'urta obyekti:	
7.	Sug'urta qoidalar (bosh shartnoma sana, nomeri):	
8.	Sug'urta muddati:	
9.	Sug'urta obyektining nomi:	
10.	Sug'urta obyektining tavsifi:	
11.	Kredit shartnomasi:	
12.	Sug'urta summasi:	
13.	Sug'urta qiymati (baxolash dalolatnomasidagi):	
14.	Sug'urta mukofoti:	

Sug'urtalangan turar-joy binosining ro'yxati 1 (bittadan) ortiqni tashkil etgan taqdirda quyidagi jadval to'ldiriladi:

SUG'URTALANGAN MOL-MULK RO'YXATI

No	Mol-mulkning nomi	Sug'urta qiymati, (valyutasi)	Sug'urta puli, (valyutasi)
1	2	3	4

TOMONLARNING IMZOLARI:

Sug'urta qildiruvchi
nomidan

imzo/m.o'

Garovga
qo'yuvchi nomidan

imzo/m.o'

**“GAROVGA QO'YILAYOTGAN USKUNANI SUG'URTA QILISH”
POL_SERY POL_NUM-SONLI ELEKTRON POLISI**

“MY INSURANCE” AJ ST hamda “Hamkorbank” ATB o'rtasida tuzilgan Bosh shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan “Garovga qo'yilayotgan uskunani” sug'urtalash qoidalariga (bundan buyon matnda – Sug'urta qoidalar deb yuritiladi) muvofiq quyidagilarga sug'urta himoyasini taqdim etayotganini tasdiqlaydi:

1	Sug'urta mahsulotining nomi	Garovga qo'yilayotgan uskunani sug'urtalash 2024__ yil __ - __ kungi __-sonli Bosh shartnomaga asosan	
2	Sug'urtalovchi	“MY INSURANCE” AJ ST	
3	Sug'urta qildiruvchi	Qarz oluvchi nomi	
4	Sug'urtalangan shaxs	Qarz oluvchi nomi	
5	Naf oluvchi	"Hamkorbank" ATB	
6	Sug'urta obyekti	Uskuna pasporti va manzili	
7	Sug'urta shakli	Ixtiyoriy	
8	Sug'urta klassi	8 klass - Mol-mulkni olovdan va tabiiy ofatlardan sug'urta qilish 9 klass - Mol-mulkni zarardan sug'urta qilish	
9	Sug'urta tavakkalchiliklari	Sugurta shartnomasida kursatilgan sugurta xodisalarini yozish kerak	
10	Sug'urta qiymati	Summa yoziladi	
11	Sug'urta summasi	Summa yoziladi	
12	Franshiza	0	
13	Sug'urta mukofoti	Summa yoziladi	
14	Sug'urta polisining amal qilish muddati	kun-oy-yil	kun-oy-yil
15	Sug'urta himoyasiga olingan hudud	O'zbekiston Respublikasi	
16	Sug'urta qoidalar	<u>sayt ssilkasi</u>	
17	Sug'urta tashkilotining manzili		
18	Alohida qaydlar		

“MY INSURANCE” AJ ST ning sug'urta tovonini to'lash bo'yicha majburiyatlari sug'urta mukofotini yoki uning qismini o'z vaqtida to'lash sharti bilan DOG_BEG_UZ yildan boshlab kuchga kiradi va DOG_END_UZ yilgacha amal qiladi.

Sug'urtalovchi nomidan:
OWN_BANK

POL_QR_CHECK

OWN_DIREKTOR

Ushbu sug'urta shartnoma(polisi)si rasmiylashtish uchun ariza bergunimga qadar “Garovga qo'yilayotgan uskunani” sug'urta qoidalariga menga taqdim etildi. Men ushbu Sug'urta qoidalar bilan to'liq tanishib chiqdim va “Garovga qo'yilayotgan uskunani” sug'urta qoidalaridagi shartlar menga to'liq to'g'ri keladi. Kelgusida mazkur qoidalar yuzasidan huquqlar, majburiyatlar tartibga solinishiga roziman va xech qanday e'tirozim yo'q. Qarz oluvchi / Sug'urta qildiruvchi

(FIO va imzo agar yuridik shaxs bo'lsa korxona nomi va vakolatli shaxs imzosi, muxri)

Polis berilgan sana: POL_VIDAN yil.

Raqamlangan, tikilgan

14

Qog'oz

Bosh direktor M. Kucharov

